

XIZMAT KO'RSATISH INDUSTRIYASI KORXONALARI FAOLIYATIDA AVTOMATLASHTIRILGAN AXBOROT TIZIMIDAN FOYDALANISH

*SamDTU Farmatsevtika ishini tashkil qilish
kafedrasi assistenti Sh.Sh.Shomurodova*

Ushbu maqola xizmat ko'rsatish sohasining mehmonxonalar tizimida avtomatlashtirilgan axborot tizimlari nomerlarni rezervlash, doimiy mijozlar, mehmonlarning talablari va ular to'lashi lozim bo'lgan haq haqidagi ma'lumotlarni kiritish, saqlash va zarur holda tez qidirib topishga yordam beradi. Muayyan sanada tashrif buyurgan mehmonlar ro'yxatini kompyuter xotirasidan topish hech qanday muammo tug'dirmaydi. Rezervlash stoli fayllari afomatlashtirilgan axborot tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular ushbu ish uchun mas'ul bo'lgan ma'mur (administrator) yordamchisiga bronlashtirilmagan nomerlar miqdori va ularning tafsilotlari: xonalari soni, derazadan ochiladigan manzara, narxi va h.k. haqida axborot olish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Axborot, rezervlash, internet, industriya, markazlashtirish, xarajatlar, xizmat ko'rsatish, rezervlash xizmati.

Axborot tarqatish muqobil kanallari jadal rivojlanishi natijasida xizmat ko'satish sohasining mehmonxonalar tizimida dunyo miqyosida rezervlash tizimlari o'zining avvalgi maveini asta-sekin yo'qotib bormoqda. Jahon internet kompyuter tarmog'i bu «yangi to'qin»ning sardoridir. Buni bronlash tizimlarining o'zi ham e'tirof etmoqda. Bu ularni internet bilan birlashishga va o'z Internet-serverlarini tuzishga rag'batlantirmoqda. Bunda GDSdagi axborotga kirish va mehmonxonalarni bronlashtirish Internet-serverlar orqali ta'minlanadi. Bugungi kunda SAHARA tizimidan tashgari, barcha GDS shunday imkoniyatlarga ega. Mehmonxonalar uchun Internet tarmog'ining imkoniyatlari faqat GDS bilan hamkorlikda ishlashdan iborat emas. Internetdan foydalanishda mehmonxonalar erishadigan asosiy ustunlik qamrab olinadigan mijozlar doirasining kengligi (yer yuzi aholisining 10 mln.dan ko'prog'i) va GDSga qaraganda arzonroq ustama harajatlardadir. Hozirning o'zidayoq Internet dunyo miqyosidagi rezervlash tizimlarining jiddiy raqibiga aylandi. Internet orgali ishlash dunyo miqyosidagi rezervlash tizimlari ishidan quyidagi jihatlar bilan farq qiladi:

- GDSda mehmonxona faqat bir marta, Internetda esa - istalgan serverlarda istalgan miqdorda ko'rsatilishi mumkin;
- dunyo miqyosidagi rezervlash tizimlari bilan o'z ishi uchun mehmonxonalaridan vositachilik haqi oladigan professional turagentlar ishlaydi, Internetdan esa

arzon mehmonxona topishga harakat gilayotgan jismoniy shaxslar foydalanadi. Bunda hech qanday agentlik komissiyasi to lanmaydi.

Internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lish va unda o'z sahifasini tashkil etish dunyo miqyosidagi rezervlash tizimlaridan foydalanish huquqini qo'lga kiritishga qaraganda oson va arzonroq bo'lib, bunga istalgan mehmonxonaning qurbi yetadi. Ammo, Internet - markazlashtirilmagan muhit. Agar Toshkent mehmonxonasi o'zi haqida axborotni istalgan GDSga kiritisa, uni Toshkent mehmonxonalari ro'yxatini ko'zdan kechirgan har bir turagent ko'radi.

Internetda buning batamom teskarisi: muayyan mehmonxona sahifasi tashkil etilganidan keyin u haqda deyarli hech kim xabar topmaydi. Internetning istalgan foydalanuvchisi o'ziga mehmonxona tanlamogchi bo'lganida yuqorida zikr etilgan mehmonxona sahifasini topishi uchun uni turli axborot qidirish tizimlari, ma'lumotnomalar, kataloglarda ro'yatdan o'tkazish bo'yicha uzoq va mashaqqatli ish olib borish, bannerli reklamaga katta mablag'lar sarflash va boshqa shunga o'shah sa'y-harakatlar talab etiladi.

Internetdan foydalanishning muhim afzalliklaridan biri shundaki, u xalqaro va shaharlararo so'zlashuvlarga harajatlarni ancha kamaytirish imkonini beradi. Xizmat ko'rsatish industriyasi korxonalarini markazlashtirilgan tartibda boshqarish ko'p vaqt va kuch sarflamasdan muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Tizim quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- biznes-jarayonlarni oqilonalashtirish, qog'ozli hujjat aylanishi hajmini kamaytirish;
- xizmatlar va xodimlar faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish;
- xizmat ko'rsatish industriyasi korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash;
- operatsion harajatlarni oqilonalashtirish;
- statistik va analitik funksiyalar.

Professional tizimlar zamirida ko'plab xizmat ko'rsatish industriyasi korxonalarining muvaffaqiyatli ish tajribasi yotadi. Bu tajriba yildan yilga oshib bormoqda va yangi professional ishlovlarda takomillashtirilmoqda. Hozirgi vaqtda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini tanlashda xizmat ko'rsatish industriyasi korxonalarini diqqatiga sazovor bo'lgan bir nechta professional ishlovlar mavjud. Barcha tizimlar xizmat ko'rsatish industriyasi korxonalarining asosiy xizmatlari faoliyatini avtomatlashtiruvchi dasturlar paketidan tashkil topadi. Dasturlarning o'zi funksional prinsipga ko'ra tuzilgan. Masalan, mehmonxonalarda nomerlar fondini boshqarish xizmatini avtomatlashtirish dasturi nomerlar fondini boshqarish, rezervlash, bronlash, mehmonlarni ro'yxatga olish, joylashtirish, yashash va ko'rsatilgan xizmatlar bahosini avtomatik tarzda yozish yo'li bilan mehmonlarning hisobvaraqlarini yuritishni ta'minlash imkonini beradi.

Restoranlar, barlar hamda umumiy ovqatlanishning boshqa bo'limlarida mijozlarga xizmatlar ko'rsatish va ular bilan hisob-kitob qilishni avtomatlashtirishga moljallangan dastur quyidagi vazifalarni bajaradi: mehmonlarning ogatlanishi va zallarning yuklanishini boshqarish dasturiarini yuritish, omborda va ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari mavjudligini kuzatish, oziq-ovqat omboriga talabnomalarni rasmiylashtirish, ishlab chiqarish oziq-og'at mahsulotlarining harakatini hisobga olish va nazorat qilish, taomlar va menyuni kalkulyatsiya qilish.

Xizmat ko'rsatish industriyasi bo'yicha birgina mehmonxonada xizmatlarini tashkil qilishda avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanishni ko'rib chiqadigan bo'lsak, quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Mehmonxonalarda avtomatlashtirilgan axborot tizimlari nomerlarni rezervlash, doimiy mijozlar, mehmonlarning talablari va ular to'lashi lozim bo'lgan haq haqidagi ma'lumotlarni kiritish, saqlash va zarur holda tez qidirib topishga yordam beradi. Muayyan sanada tashrif buyurgan mehmonlar ro'yxatini kompyuter xotirasidan topish hech qanday muammo tug'dirmaydi. Rezervlash stoli fayllari avtomatlashtirilgan axborot tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular ushbu ish uchun mas'ul bo'lgan ma'mur (administrator) yordamchisiga bronlashtirilmagan nomerlar miqdori va ularning tafsilotlari: xonalari soni, derazadan ochiladigan manzara, narxi va h.k. haqida axborot olish imkonini beradi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimi mehmonxonada faoliyatiga joriy etilgunga qadar rezervlash bilan shug'ullanuvchi xodim bunday axborotni yig'ishi va undan foydalanishi ancha og'ir ish bo'lib, juda ko'p vaqtni olar edi.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi kompyuter dasturlari to'plamidan iborat bo'lib, ular yordamida boshqarish ofislari va yordamchi bo'limlar ishi uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan axborotni yig'ish va undan foydalanish mumkin. Bu to'plam tarkibida to'rt dastur ayniqsa muhimdir, chunki ular ma'murlarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha kerakli axborot bilan ta'minlaydi:

- rezervlash xizmatini boshqarish;
- mehmonlarga xizmat ko'rsatishni boshqarish;
- mehmonlar bilan hisob-kitob qilishni boshqarish;
- mehmonxonani boshqarishning umumiy masalalari.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimining rezervlash xizmati faoliyatini ta'minlovchi tarkibiy qismi mazkur xizmat xodimlariga rezervlashga so'rovlarni tez olish, rasmiylashtirilgan bronlarga tasdiqlar olish va mehmonxonada nomerlari mijozlar bilan qay darajada to'liqligi haqida doim aniq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimida bevosita ofisda va telefon orqali rezervlash markazlashtirilgan tizimi orqali amalga oshirilgan bronlash haqidagi barcha axborot jamlanadi.

Transport agentliklari ham ushbu markazlashtirilgan tizimga kompyuter tarmog'i orqali to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyatiga ega. Avtomatlashtirilgan axborot

tizimidan surunkali foydalanuvchi mehmonxonaning yuzdan ortiq xizmatchilari istalgan vaqda turli xil axborotlarni olishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Shomuradova THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF MERCHANDISING ACTIVITIES IN RETAIL ENTERPRISES // SAI. 2023. №D3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/theoretical-and-methodological-foundations-of-the-development-of-merchandising-activities-in-retail-enterprises> (дата обращения: 19.10.2023).
2. D. Togayeva (2023). ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE SAMARKAND REGION. *Science and innovation*, 2 (A1), 103-106. doi: 10.5281/zenodo.7541692
3. Султонов Ш. А., Шомуродова Ш. Ш. ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА АҲОЛИНИНГ ТУРМУШ ДАРАЖАСИ ВА СИФАТИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 248-252.
4. Hasanov, H., Sulstonov, B., Norbekov, F., & Togayeva, D. (2023). FOIZ STAVKASI VA DAROMADNING ISTE'MOL XARAJATLARIGA TA'SIRI TAHLILI. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(4), 5-13.
5. Шомуродова Ш. Ш. ИННОВАЦИОН САЛОҲИЯТ ВА УНИ АНИҚЛАШНИНГ ИЛМИЙ-УСЛУБИЙ МАСАЛАЛАРИ //ЎЗДҚОР О'QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 30. – С. 189-195.
6. Togayeva, D. (2023). QISHLOQ JOYLARDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI MASALALAR. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(6), 223-227.
7. Тогаева, Д. А., & Султонов, Б. А. (2023). Роль розничной торговли в повышении уровня жизни населения сельской местности. *Journal of Universal Science Research*, 1(6), 759-763.
8. Azamatovna, T. D., & Abduxalilovich, S. B. (2023). The role of retail trade in raising the standard of living of the rural population. *Journal of Universal Science Research*, 1(6), 754-758.
9. Алтыбоева М. Г., Бозорова Н. С. СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА КИШЕЧНУЮ МИКРОФЛОРУ У ДЕТЕЙ //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 109-112.
10. Alikovna J. F. et al. SALVIA O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 6. – №. 2. – С. 217-218.
11. G'ulomovna O. M., Sobirjonovna B. N. MODERN VIEWS ON INTESTINAL MICROFLORA IN CHILDREN //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 279-282.
12. Sulonov S. A., Shomurodova S. S. XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRIB, AHOLI TURMUSH DARAJASI VA

- SIFATINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 247-251.
13. Шомуродова Ш. Ш. ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЖИЗНИ И КАЧЕСТВА НАСЕЛЕНИЯ ЗА СЧЕТ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В СФЕРЕ УСЛУГ //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 13. – №. 4. – С. 132-138.
 14. Mavsuma O. MEDICINAL PROPERTIES OF SEA BUCKTHORN (Hippophae Rhamnoides L.) OIL PLANT //Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 1-3.
 15. Базарова Н. С., Зиядуллаев Ш. Х. Современные аспекты полиморфных генов матриксной металлопротеиназ и ее тканевых ингибиторов у детей с хроническим гломерулонефритом и прогноз заболевания //журнал гепатогастроэнтерологических исследований. – 2022. – Т. 3. – №. 1.
 16. Sobirjonovna B. N. New aspects of the genetic disposition of various forms of chronic nephritic syndrome in children //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 778-782.
 17. Clinical dynamics of chronic nephritic syndrome in children BN Sobirjonovna, TS Kurakbaevna - Eurasian Medical Research Periodical, 2023
 18. Sobirjonovna B. N., Kurakbaevna T. S. Clinical dynamics of chronic nephritic syndrome in children //Eurasian Medical Research Periodical. – 2023. – Т. 19. – С. 53-56.
 19. Clinical dynamics of chronic nephritic syndrome in children BN Sobirjonovna, TS Kurakbaevna - Eurasian Medical Research Periodical, 2023
 20. Бозорова Н., Анорбаева Ш., Назарова Л. ЗНАЧЕНИЕ ПОДДОРОЖНИКА В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ //Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 5-6.
 21. Sobirjonovna B. N. et al. ZUBTURUM O'SIMLIGINING XALQ TABOVATIDAGI AHAMIYATI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 6. – №. 2. – С. 215-216.
 22. Uchkunov S., Mamadaliyev J., Djuraeva B. EYE DISEASES IN MEDICINE //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2024. – Т. 4. – №. 1 Part 2. – С. 128-135.
 23. Djuraeva B., Malikova Z., To'uchiyeva M. WISDOM TEETH IN HUMANS //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 132-135.
 24. Djuraeva B., Mамurjonova S., Ruzmatova M. SKIN-RELATED PROBLEMS //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 127-131.
 25. Djuraeva B., Kuylibayeva I., Abdugafforov B. INTESTINAL DISEASES: DUODENITIS //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 120-126.
 26. Ахмедов Б., Буриев З. ДОРИВОР АНОР (PUNICA GRANATUM L.) ЭКСПЛАНТАРИНИ ТАНЛАШ ВА СТЕРИЛИЗАЦИЯ ҚИЛИШ

- //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 1 Part 2. – С. 131-134.
27. Akhmedov B., Buriev Z. SELECTION AND STERILIZATION OF MEDICINAL POMEGRANATE (PUNICA GRANATUM L.) EXPLANTS //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 106-108.
28. Telmanovna X. S., Batirbekovich X. R. Psychopharmacotherapy of Depressive Disorders in Alcoholism //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – Т. 16. – С. 179-182.
29. Abdukadirova N. B., Telmanovna X. S. Assessment of the Level of Immunoglobulins in the Blood Serum in Young Children Depending on the Type of Feeding //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – Т. 17. – С. 164-166.
30. Abdukadirova N. B., Telmanovna X. S. Options clinical manifestations of giardiasis in children //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – Т. 17. – С. 167-170.
31. Хаятова Ш. Т., Абдукадилова Н. Б. ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ЖЕЛЕЗО-ДЕФИЦИТНЫХ АНЕМИЙ НА ФОНЕ ЗАБОЛЕВАНИЙ ЖЕЛУДОЧНО-КИШЕЧНОГО ТРАКТА //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 277-280.
32. Azizkhonovna N. M. et al. ALTHAEA ARMENIACA TEN AND ITS USEFUL PROPERTIES IN MEDICINE //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 256-259.
33. Azizkhonovna N. M. FEATURES OF A TIMELY APPROACH TO ANEMIA IN CHILDREN //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 54-61.
34. Azizxonovna N. M. ZAMONAVIY TIBBIYOTDA BOLALARDA ANEMIYAGA O'Z VAQTIDA YONDASHISH XUSUSIYATLARI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 13. – №. 4. – С. 45-50.
35. Nabieva F. S., Narzullayeva M. A., Bo'Riyev M. G. YUQUMLI KASALLIKLARNI TASHXISLASHDA IMMUNOFERMENT TAHLILINING AHAMIYATI //Research Focus. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 161-164.